
TARG'IBOT UCHRASHUVLARI O'TKAZILDI



Jinoyat ishlari bo'yicha Qo'shtepa tumani sudining raisi A.Ergashev ishtirokida tumandagi bir qator mahalla fuqarolar yig'inlarida hamda tuman Xalq ta'limi bo'limida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-46 sonli Qarorining bir qator bandlari ijrosi yuzasidan "Inson huquqlari – oliy qadriyat" mavzusida targ'ibot uchrashuvlari o'tkazildi.

Tadbir ishtirokchilariga tuman sudining raisi A.Ergashev tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda burchlari haqida tushuntirishlar berib o'tildi.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-02-25 09:13:35